ARAB TILINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Rajapboyeva Dildora Rustamovna
Yangi asr universiteti Sharq filologiyasi kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab chet tillarni o‘qitish metodikasida yuz bergan paradigmatik o‘zgarishlar hamda ularning arab tilini o‘qitish jarayoniga ta’siri yoritiladi. Tilni faqat grammatik tizim sifatida emas, balki samarali muloqot vositasi sifatida o‘zlashtirishga bo‘lgan e’tiborning kuchayishi tahlil qilinadi. Zamonaviy metodlar, xususan, kommunikativ yondashuv, kompetensiyaviy model va vazifaga asoslangan o‘qitish (Task-Based Learning) o‘quvchilarda nutqiy erkinlik, mustaqil fikrlash hamda real kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirishda samarali vosita sifatida ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: arab tilini o‘qitish, kommunikativ metod, kompetensiyaviy yondashuv, Task-Based Learning, kommunikativ kompetensiya, nutqiy erkinlik, mustaqil fikrlash, til ta’limi paradigmasi.



XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab chet tillarni o‘qitish metodikasida tub burilishlar yuz berdi. Tilni faqat grammatik tizim sifatida o‘rgatishdan ko‘ra, uni real muloqot vositasi sifatida o‘zlashtirishga e’tibor kuchaydi. Mazkur paradigmatik o‘zgarish arab tilini o‘qitish metodikasiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Zamonaviy yondashuvlar tilni real kommunikativ jarayon bilan bog‘lash, o‘quvchini ta’lim jarayonining faol subyekti sifatida shakllantirish hamda kompetensiyaviy model asosida aniq natijalarga erishishni maqsad qiladi.

1. Kommunikativ metod (Communicative Language Teaching)

Zamonaviy til o‘qitish metodlarining eng muhimlaridan biri kommunikativ yondashuv hisoblanadi. Mazkur metod tilni, avvalo, muloqot vositasi sifatida o‘zlashtirishni asosiy maqsad qilib belgilaydi. Kommunikativ metod nazariy jihatdan D. Hymes tomonidan ilgari surilgan “kommunikativ kompetensiya” tushunchasiga asoslanadi. Unga ko‘ra, tilni bilish faqat grammatik qoidalarni o‘zlashtirish bilan cheklanmaydi, balki undan turli ijtimoiy va kommunikativ vaziyatlarga mos ravishda to‘g‘ri va samarali foydalana olishni ham anglatadi.

Kommunikativ yondashuv tilni o‘rganishda samarali metodlardan biri hisoblanadi. Ushbu metod asosida o‘quvchilar grammatika va lug‘at boyligini o‘zlashtirish bilan bir qatorda, o‘rganilgan til birliklarining amaliy qo‘llanilishiga ham alohida e’tibor qaratadilar. Til o‘rganish jarayonida o‘quvchilarni real hayotdagi muloqot vaziyatlariga tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Masalan, biror mahsulotni sotish yoki sotib olish, restoranda buyurtma berish, buyurtma qabul qilish, mehmonni kutib olish yoki sayohat qilish kabi kundalik hayotga xos vaziyatlardan foydalanish til o‘rganish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Shu bilan birga, mazkur yondashuv o‘quvchilarni qisqa va mazmunli suhbatlarda tildan foydalanishga, xatolardan qo‘rqmasdan erkin muloqot qilishga undaydi. Bu usul orqali o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyati samarali tashkil etiladi va ular o‘rganayotgan tildan amaliy jihatdan yanada samarali foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kommunikativ metod asosida ta’lim olgan talabalar og‘zaki nutqda yuqori darajadagi erkinlikka erishadilar hamda real kommunikativ vaziyatlarda kamroq psixologik to‘siqlarga duch keladilar.

2. Kompetensiyaviy yondashuv

Zamonaviy til ta’limida kompetensiyaviy model muhim o‘rin egallaydi. Mazkur model tilni o‘qitishda ta’lim natijalarini shakllangan kompetensiyalar asosida baholashni nazarda tutadi. Til kompetensiyasi lingvistik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik komponentlarni o‘z ichiga oladi.

Arab tilini o‘qitishda kompetensiyaviy yondashuv talabaning quyidagi ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltiriladi:

- nutqiy vaziyatni tushunish;
- muloqotga kirisha olish;
- axborotni tahlil qilish;
- mustaqil fikr bildirish.

American Council on the Teaching of Foreign Languages (ACTFL) tomonidan ishlab chiqilgan baholash mezonlari arab tilini chet tili sifatida o‘qitishda keng qo‘llanilmoqda. Mazkur mezonlar til bilimini faqat an’anaviy darajalar orqali emas, balki “Novice”,

“Intermediate”, “Advanced” kabi amaliy kommunikativ darajalar asosida baholashga imkon beradi.

3. Task-Based Learning (Vazifaga asoslangan o‘qitish)

Zamonaviy metodikada keng qo‘llanilayotgan yana bir muhim yondashuv — vazifaga asoslangan o‘qitish (Task-Based Learning) hisoblanadi. R. Ellis ushbu metodni tilni maqsadli kommunikativ vazifani bajarish jarayonida o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan yondashuv sifatida izohlaydi.

Arab tilini o‘qitishda mazkur metod, masalan, quyidagi amaliy vazifalar orqali amalga oshirilishi mumkin:

- arab tilida e’lon tuzish;
- mehmonni kutib olish ssenariysini ishlab chiqish;
- arab tilidagi yangilikni tahlil qilish kabi vazifalarni bajarish.

Tadqiqotlar vazifaga asoslangan yondashuv o‘quvchilarda nutqiy erkinlik va mustaqil fikrlashni rivojlantirishini ko‘rsatadi.

Vazifa asosida o‘qitish (TBL) metodida o‘quvchilarni tilni faqat nazariy jihatdan o‘rganishga yo‘naltirish emas, balki uni amaliyotda faol qo‘llashga undash asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi. Ushbu metodda o‘quvchilar turli xil amaliy va kommunikativ vazifalarni bajarish orqali tilni o‘zlashtiradilar. Masalan, o‘quvchilarga ma’lum bir vazifani bajarish topshirilganda, ular ushbu vazifani amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan so‘zlar, iboralar va grammatik qoidalarni bilishlari hamda ularni amaliy vaziyatda qo‘llay olishlari talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdulaziz, R. (2024). A Comparative Analysis of English and Arabic Prepositions: Syntax, Semantics, and Usage Patterns. Excellencia: International Multi-Disciplinary Journal of Education (2994-9521), 2(5), 112–114 pp.

2. ACTFL. Proficiency Guidelines. – Alexandria: American Council on the Teaching of Foreign Languages, 2012. – 124 p.

3. Berkey, J. P. The Transmission of Knowledge in Medieval Cairo. – Princeton: Princeton University Press, 1992. – 274 p.

4. Brown, H. D. Principles of Language Learning and Teaching. – 5th ed. – New York: Pearson Education, 2007. – 410 p.

5. Canale, M., Swain, M. Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing // Applied Linguistics. – 1980. – Vol. 1. – No. 1. – P. 1–47.

6. Ellis, R. Task-Based Language Learning and Teaching. – Oxford: Oxford University Press, 2003. – 387 p.

7. Xolmatov, D. Chet tillarni o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Tafakkur, 2018. – 280 b.

8. Willis, J. A Framework for Task-Based Learning. – London: Longman, 1996. – 192 p.

